
MAVSUMDA GULCHILIKDAN 350 MILLION SO‘M DAROMAD

Tomorqa daromad manbai. Buni yaxshi bilgan tushungan toshloqliklar har qarich yerdan unumli foydalanib, mo‘maygina daromad topmoqdalar.

Elyorbek Karimov ham 1 gektar yer maydonida issiqxona tashkil etib, 9 turdagi gul navlarini parvarish qilmoqda. Tadbirkor daromad topish bilan birga 10 nafarga yaqin xotin-qizlarni ish bilan band etdi.

Gulchilik noziklikni hamda alohida e‘tiborni talab etadigan mashaqqatli mehnatdir,-deydi tadbirkor E.Karimov. -Avvallari bu joylar qarovsiz qolgan yerlar bo‘lgan. Muhtaram Prezidentimizning tadbirkorlarga berayotgan imkoniyatlaridan samarali foydalanib, 1 gektar yer maydoniga kredit asosida issiqxona barpo etdik. Gulchilik sir asrorlarini puxta o‘rganim, hozirda gulning nozik turlarini parvarish qilmoqdamiz. Daromadi ham mo‘maygina, mahsulotlarimiz mahalliy bozorlardan tashqari qo‘shni davlatlarga ham sotilmoqda. Kelgusida, faoliyatimizni kengaytirib, ishchi o‘rinlarni yanada ko‘paytirmoqchimiz.

2022-12-27 17:34:56